

## **TEKOR-QIDIRUV FAOLIYATIDA INSONLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLERINI TA'MINLASH**

Xafizullayev Abbas Odiljon o'g'li

IIV Akademiyasi 3-bosqich 303-guruh kursanti

### **Annotatsiya:**

Maqolada tezkor-qidiruv faoliyatida insonlarning huquq va erkinliklariga qaratilgan bo'lib, undagi barcha fuqarolarning manfaatlariga zid keladigan xatti-harakatlarni sodir etilishi oldi olishga bag'ishlanadi. Bunda O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi fuqarolaridan tashqari fuqaroligi bo'limgan shaxslarning va chet el fuqarolarini huquqlari va erkinliklariga taalluqli bo'lgan xalqaro normativ huquqiy hujjatlarni va respublikamizda amaldagi huquqiy hujjatlar o'rjanilgan.

**Kalit so'zlar:** konstitutsiyamizda inson huquqlari, tezkor-qidiruv faoliyati, tezkor-qidiruv faoliyati vazifalari, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", qonuniylik, demokratizm, xalqaro qununchilik normalari, bungi kundagi o'zgarishlar, jamoatchlik fikrlari, inson huquqlariga e'tiborning yuksalishi, insonparvarlik prinsipi.

Muhtaram Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisidagi ma'rzasida "Davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga baho berishda qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari qanday himoya qilinayotgani biz uchun eng asosiy mezon bo'lishi shart. Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak"- degan edilar.

Mustaqil demokratik yo'ldan dadil odimlayotgan O'zbekistonning eng ulug' maqasadi, avvalo, xalqimiz manfaatlari ko'zlangan islohatlarni amalga oshirishga qaratilgani bilan e'tiborliroqdir. Bu jihatlar Konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo'yilgan.Qomusimizning II bob 13 moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi".<sup>1</sup>

Dastlab inson huquqi nima ekanligini bilib olishimiz maqsadga muovfiq hisoblandi. Inson huquqi – shaxsning hayotiy ehtiyoji,yashashi, komil topishi uning jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan aloqasi uchun zarur bo'lgan xususiyatlar tushuniladi.

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari - inson va fuqarolarning Konstitutsiya shuningdek qonunlarda mustahkamlangan huquqlari hamda erkinliklarini amalga oshirishni davlat tomonidan ta'minlashga yordam beradigan vositalar, usullar shu jumladan shart-sharoitlar majmui hisoblanadi. Inson huquqlari hamda erkinliklarining kafolatlarini quyidagicha turkumlash mumkin deb hisoblanadi:yuridik,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi:30.04.2023

ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy deb qaraladi. Yuridik kafolatlar deganda fuqarolarning huquqlari shu bilan bir qatorda erkinliklari qonunlar asosida huquqiy jihatdan kafolatlanishini anglash mumkin. Yuridik kafolatlarning quyidagi shakllari mavjud deb qaraladi: konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlar; sudlar tomonidan huquqlar shuningdek erkinliklarni kafolatlash; ombudsman faoliyati; hukumat faoliyatini qayd etib o'tish joiz<sup>2</sup>

O'zbekistonda Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning shakllanishi mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash jarayonlari doirasida davlat va jamiyatning barcha sohalarida demokratik islohotlar o'tkazish amalga oshirildi. Jumladan, davlatimiz rahbarining 2008 yil 1 maydagi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni O'zbekistonda Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning huquqiy maqomini mustahkamlash yo'lida yana bir muhim qadam bo'ldi, deyish mumkin. Prezidentimiz Farmonida inson huquqlarini himoya qilish tizimini tashkiliy-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnikaviy bazani mustahkamlash, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi va boshqa milliy institutlar bo'linmalarining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish ko'zda tutilgan.

Ayni paytda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan inson huquqlari bo'yicha milliy institutlardan Oliy Majlis Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti hamda Milliy markazimiz zimmasidagi vazifalarni to'laqonli bajarish yo'lida xizmat qilib kelmoqda. Bu tashkilotlarning harakati, izlanishlari o'laroq, yurtimizda inson huquqlari muhofazasi yo'lida mustahkam qonunchilik tizimi barpo etildi. Istiqlol yillarda insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir konstitutsiyaviy qonunlar, kodekslar va boshqa qonunlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmoqda. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Xayriya to'g'risida"gi va boshqa qonunlarning qabul qilinishi inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga zamin bo'lmoqda.

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan bir davrda, jinoyatchilik sohasi ham aql bovar qilmas darajada o'sib bormoqda. Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat natijasida sodir etlishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish, unga imkon beruvchi sabab-sharoitlarini aniqlash va tez fursatlarda fosh etishga qaratilgan chora-tadbirlarga qaratilgan hisoblanadi.

<sup>2</sup> Toychiyev, N., ed (2009). "Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari". O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Toshkent: „Adolat“ nashriyoti. p. 216.

Insonning o'z erkinliklari, huqulari va manfaatlari uchun davom etgan uzoq kurashi umuminsoniy ahamiyat darajasiga ko'tarilgan quyidagi me'yoriy-huquqiy haujjatlarda o'zining moddiy ifodasini topgan:

- Erkinlikning buyuk xaritiyasi (1215)
- Huquq to'g'risidagi petitsiya (1628)
- " Habeas Corpus AKT" (1679)
- Huquqlar to'g'risidagi bill (1689)
- Amerika Virginiyasi huquqlari Deklaratsiyasi (1776-yil);
- Amerika Qo'shma Shtatlarining mustaqillik Deklaratsiyasi (1776-yil);
- Fransuz inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi (1789-yil);
- Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil);
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt (1966-y) va boshqalar.

Tezkor-qidiruv faoliyatida bevosita insonlarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda xalqaro me'yoriy hujjatlardan keng foydalaniladi. Inson huquqlarini kafolatlash maqsadida 1948-yil 10-dekabrdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali Inson huqulari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingan va e'lon qilingan. Ushbu deklaratsiyaning 8-moddasida "Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonu orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega" 9- moddasida esa "Hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emas"<sup>3</sup> ligini insonlarning huquqlari ekanini belgilab o'tgan.

Yuroridagilardan tashaqari 1984-yil 10-dekabrdan " Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr- qimmatini kamsitadigan turlariga qarshi" konvensiya qabiul qilingan bo'lib unda:

Ushbu Konvensiyaning maqsadlari uchun qiynoqning ta'rifi shunday istalgan harakatni anglatadiki, u bilan qandaydir shaxsga undan yoki uchinchi shaxsdan ma'lumotlar yoki e'tirof olish, uni u yoki uchinchi shaxs sodir etgan yoki sodir etishda u gumon qilinadigan harakat uchun jazolash, shuningdek uni yoki uchinchi shaxsni qo'rqtish yoki zo'rash maqsadida, yoki bunday og'riq yoki azob davlatning mansabdor shaxsi yoki rasmiy sifatdagi boshqa shaxs, yoki ularning gijgijlashi bilan, yoki ularning xabardorligida yoki indamay roziligi bilan har qanday tusdagi kamsitish asoslangan istalgan sabab bo'yicha ataylab kuchli og'riq va azob beriladi. Bu ta'rifga qonuniy sanksiyalar natijasida paydo bo'ladigan shu sanksiyalardan ajralmas yoki ulardan tasodifan chiqqan og'riq yoki azoblar kirmaydi.<sup>4</sup>

<sup>3</sup> "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" 1948-yil 10-dekabr

<sup>4</sup> "Qiynoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsitadigan turlariga qarshi" konvensiya 1-moddasi

Shu maqsadda jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash davlatnni eng muhim vazifalaridan biri hisioblanadi. Jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, jinoyat ishi yuzsidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida hozirgi kundagi eng zamonaviy texnika vositalardan foydalangan holda, zarur choralar korish yuzasidan tergovga qardar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar tomonidan amalga oshirilgan tezkor-qidiruv faoliyat natijalari muhim o'rinni tutadi.

O'bekiston Respublikasining qonun hujjaligiga nazar solsak, deyarli barchasi fuqarolarning huquq va erkinlariga qaratilgan bo'lib, unda shaxsning barcha sohalarda qanday huquq va erkinliklari borligi, undan qanday foydalanish kerakligi tushuntirilib o'tilgan. Hattoki shaxs jinoyat sodir etib suddan va tergov organlaridan bo'yin tovlab yurgan bo'lsa ham uning huquq va erkinliklariga putur yekazmasdan amalga oshirilishi ko'zda tutilgan va qununlar bilan mustahkamlab qoyilgan.

Hozirgi vaqtda barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklari muhofaza qilinib kelmoqda. Ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlaridan hisoblangan tezkor qidiruv faoliyati ham o'zing hissasini qo'shamoqda. Tezkor-qidiruv faoliyatini asosiy vazifalarini belgilashda hamda tartibga solish maqsadida 2012 yil 25-dekabrda "Tezkor-qidiruv faoliyatini to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Tezkor-qidiruv faoliyati bu – ushbu Qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarning tezkor bo'linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish orqali amalga oshiriladigan faoliyat turidir. Ushbu qonunning 4-moddasida tezkor –qidiruv faoliyatining asosiy vazifalari belgilab o'tilgan:

- inson huqulari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini himoya qilish, shaxs, jamiyat va davlat xafsizligini ta'minlash;
- jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga barham berish va ularni fosh etish, shuningdek jinoyatlarni tayyorlash va sodir etishga daxldor shaxslarni aniqlash hamda topish;
- surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashrinib yurgan, jinoiy jazodan bo'yin tovlayotgan shaxslarni bedarak yo'qolgan shaxslarni va qonunchilikda nzarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarni qidirishni amalga oshirish, shuningdek tanib olinmagan murdalarni shaxsini aniqlash;
- shaxs, jamiyat va davlat xavsizligiga tahdid solayotgan shaxslar, hodisalar, harakatlar (harakatsizlik) haqida axborot to'plash<sup>5</sup>.

<sup>5</sup> 25.12.2012 yildagi O'RQ-344-son "Tezkor-qidiruv to'g'risida"gi Qonun: 3 va 4- moddalari

Qayd etilgan vazifalardan kelib chiqib tezkor-qidiruv faoliyatining maqsadini, mazkur faoliyatni amalga oshiruvchi sub'ektlarning inson hayoti, sog'lig'i, huqulari va erkinliklarini, mulkni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish, qiruvdagi shaxslarni topish, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash borasida yakuniy natijaga erishishga yo'naltirilgan faol harakatlari sifatida tushunish kerak.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlatning ma'muriy –huquqiy, jinoiy –huquqiy, jinoyat-protsessual va jinoiy- ijroiya kabi huquqni muhofaza qilish turlari qatori tezkor-qidiruv faoliyati ham samarador davlat-huquqiy turlaridan biri hisoblanadi. Tezkor-qidiruv faoliyati yuridik faoliyatning alohida turi sifatida maxsus vakolatli davlat organlari, ularning tezkor bo'linmalari hamda mansabdar shaxslari tomonidan faqat jinoyatchilikka qarshi kurash maqsadlarida amalga oshirilib kelinadi. Ushbu faoliyat jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish manfaatlariga bo'ysundirilgan bo'lib, uning bosh maqsadi tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish orqali shxsning qonun bilan qo'riqlanayotgan huqqularini va qonuniy manfaatlarini, mulkini jinoiy tajovuzlardan samarali himoyalash jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashda namoyon bo'ladi.<sup>6</sup>

"Inson huqulari, erkinlari va qonuniy manfaatlarini, yuridik va jismoniy shaxslarning mulikini himoya qilishini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash". Qonunda tezkor –qidiruv chorralari yordamida himoya qilinadigan ob'ektlar ichida birinchi o'ringa inson huqulari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari qo'yilgan. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar va ularning mansabdar shaxslari tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda inson huqulari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etishlari shart. Ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxsalarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda, mazkur organlar va ularning rahbarlari bu huquqlar va qonuniy manfaatlarni tiklash, yetkazilgan zararning o'rmini qoplash hamda aybdorlarni qonun hujjalariiga muvofiq ko'riliishi begilab o'tilgan

Tezkor-qidiruv faoliyati jarayonida olingan materiallar inson huqulari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini cheklash uchun, huddi shuningdek, ularga qo'shimcha huquq va erkinliklari berish uchun asos bo'lib xizmat qilish mumkin emas. Insonning shaxsiy hayotiga taalluqli holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor bo'lishiga olib keladigan, hayoti va sog'lig'ini xavf ostida qo'yadigan xatti-harakatklarni amalga oshirish taqiqlanadi.

Shaxslarning jinoiy tajovuzlardan himoyasini ta'minlash tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifalaridan birini amalga oshirish bo'lib, inson hayoti va sog'ligi, uning huquq va erkinliklariga qarshi har qanday jinoyatlar sodir etilishiga to'sqinlik qiladigan hamda boshqa huqubuzarlar tomonidan shaxsning daxlsizligiga tajovuz qilinmasligini ta'minlovchi chora-tadbirlarni ko'rishdan iboratdir.<sup>7</sup>

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, mamlakatimizdagi keng ko'lami islohotlarning samarasini har bir inson o'z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o'z vaqtida va samarali ta'minlash, jamiyatimizning boshqa sohalari kabi inson huquqlari muhofazasiga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ham zamon talabidan kelib chiqib tubdan takomillashtirish bugungi kunning muhim talabidir. Bu vazifa Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili - ombudsman zimmasiga ham alohida mas'uliyat yuklaydi. Aytish kerakki, fuqarolar murojaatlari va shikoyatlarni ko'rib chiqish va ularning buzilgan huquqlarini tiklash, inson huquqlarini kafolatlovchi qonunchilik bazasini mustahkamlash borasida faoliyat yurituvchi ombudsman tuzilmasi mamlakatimiz huquq tizimida alohida o'rin egalladi. Boshqa tuzilmalardan farqli o'laroq, ombudsman nafaqat qonuniylik, balki samaradorlik, maqsadga muvofiqlik, vijdon vaadolat nuqtayi nazaridan faoliyat ko'rsatadi. Mazkur institut faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"<sup>6</sup>gi qonun Markaziy Osiyo bo'yicha birinchi bo'lib O'zbekistonda qabul qilingan. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida esa o'tgan 4 yil davomida ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi, nufuzli xalqaro tashkilotlarning tavsiya va takliflari asosida parlament ombudsmani vakolatlari yanada kengaydi. Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish tizimi institutsional bazasining kengaytirilishi va mustahkamlanishi ushbu yo'nalishdagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish yo'nalishida keyingi yillarda bajarilayotgan ishlarning natijasi bo'ldi. Jumladan, Prezidentimizning 2020-yil 22-iyundagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"<sup>6</sup>gi farmoni qabul qilinishi mazkur yo'nalishda qo'yilgan yana muhim qadam bo'ldi. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmini yana-da takomillashtirish maqsadida qabul qilingan ushbu muhim hujjatda ham ombudsman faoliyatiga bevosita aloqador vazifalar belgilangan. Jumladan, ombudsman o'z faoliyati va tajribasidan kelib chiqib, tegishli takliflar kiritgan holda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy

<sup>6</sup> "Tezkor-qidiruv to'g'risida"<sup>6</sup>gi Qonuniga ilmiy-amaliy sharh: V.Karimov.: 2021-yil 2 va 34-betlar

rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini, umume’tirof etilgan xalqaro standartlar hamda O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlarini, shuningdek, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalarining tavsiyalarini hisobga olgan holda qonunchilikni takomillashtirishga o‘z hissasini qo‘shadi. Shuningdek, Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiyada jinoyatchilikning, ayniqsa, odam savdosi, korrupsiya, qiyonoqqa solish, uyushgan va transmilliy jinoyatchilikning oldini olish va bu illatlarga qarshi kurashish, shuningdek, ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va mahkumlarni saqlash joylari tizimida odil sudlovga va inson huquqlariga rioya etilishini ta’minalash kabi belgilangan yo‘nalishlar ham bevosita ombudsmanning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu yo‘nalishlarda u samarali va ta’sirchan faoliyat yuritishi mumkin. Chunki u oddiy xalqqa juda yaqin, maqbul hokimiyat resursi hisoblanadi. Xalq dardiga qulq solib, ularning buzilgan huquqlarni tiklash orqali ombudsman instituti fuqarolar va davlat hokimiysi o‘rtasidagi uyg‘unlik mustahkamlanishini ta’minalaydi. Shuningdek, u parlamentning ijro hokimiysi, ayniqsa, uning o‘rta va quyi bo‘g‘ini faoliyati ustidan parlament nazoratining ta’sirchan vositasidir.<sup>8</sup>

Xulosa qilib aytganda tezkor- qidiruv faoliyatida, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda qoleversa, barcha sohalarda inson huquqlarini erkinliklarini qonuniy manfaatlari himoya qilish ular turli xildagi qonunuchilikda nazarda tutilmangan g’ayriqonuniy xatti-harakatlarni qilish, o‘z quqlarini himoya qilishlarida tur xil to’siqlarini yaratmaslik haqiqda normativ huquqiy hujjatlarda belgilab kelinmoqda. Shunung uchun ham mamlakatimizda insonlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari birinchi o‘rini egallab kelmoqda.

## **Foydanilgan adabiyotlar**

1. SH.M.Mirziyoyevning maruzalar to’plami.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. “ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” 1948-yil 10-dekabr
4. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-344,
5. 25.12.20123."Tezkor-qidiruv faoliyati tog'risida"gi Qonuniga ilmiy-amaliy sharh, V. Karimov. Toshkent
6. Huquq to'g'risidagi petitsiya (1628)
7. “ Habeas Corpus AKT” (1679)

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) - Feruza Eshmatova

8. Huquqlar to‘g’risidagi bill (1689)
9. Amerika Virginiyasi huquqlari Deklaratsiyasi (1776-yil);
10. Amerika Qo‘shma Shtatlarining mustaqillik Deklaratsiyasi (1776-yil);
11. Fransuz inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi (1789-yil);
12. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil);
13. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g’risida xalqaro Pakt (1966-y) va boshqalar